Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-shaxsiy rivojlanishida shaxslilik xususiyatlarining tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi empatiya, emotsional barqarorlik, kommunikativlik, pedagogik yo'nalganlik, kasbiy motivatsiya va refleksiya kabi sifatning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogik oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish hamda o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, shaxslilik xususiyatlari, kasbiy kompetentlik, pedagogik yo'nalganlik, empatiya, emotsional barqarorlik, refleksiya, pedagogik faoliyat, kasbiy rivojlanish, pedagog imiji, ma'naviy qadriyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish.

Abstract: This article scientifically and theoretically analyzes the role of personality traits in the professional and personal development of future primary school teachers. The study highlights the essence and significance of such qualities as empathy, emotional stability, communicative competence, pedagogical orientation, professional motivation, and reflection, which ensure the effectiveness of pedagogical activity. In addition, the article reveals the issues of developing personal and professional competence of future teachers within the system of higher pedagogical education, fostering their spiritual and moral values, and supporting their need for self-development.

Key words: future teacher, primary education, personality traits, professional competence, pedagogical orientation, empathy, emotional stability, reflection, pedagogical activity, professional development, teacher image, moral values, self-development.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализирована роль личностных качеств в профессионально-личностном развитии будущих учителей начальных классов. Раскрыта сущность и значение таких качеств, как эмпатия, эмоциональная устойчивость, коммуникативность, педагогическая направленность, профессиональная мотивация и рефлексия, обеспечивающих эффективность педагогической деятельности. Также рассмотрены вопросы формирования профессионально-личностной компетентности будущих педагогов в системе высшего педагогического образования, развития их духовно-нравственных ценностей и поддержки потребности в саморазвитии.

Ключевые слова: будущий учитель, начальное образование, личностные качества, профессиональная компетентность, педагогическая направленность, эмпатия, эмоциональная устойчивость, рефлексия, педагогическая деятельность, профессиональное развитие, имидж педагога, нравственные ценности, саморазвитие.

KIRISH

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda zamonaviy talablarning o'zgarishi mutaxassislar uchun kasbga tayyorgarlikning muhim samarali usullari va texnologiyalarini joriy etish hamda bo'lg'usi mutaxassi faoliyatining metodologik asoslarini qayta baholash masalalari bugungi kunda to'liq hal etilmagan muammolardan bo'lib qolmoqda. Talabalarni bo'lg'usi kasbni o'zlashtirish davomida ulani samarali kasbiy faoliyatga undaydigan kasbiy ong va o'z-o'zini anglash xususiyati rivojlangin bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy motivatsiya ehtiyojlari va kasbiy qadriyatlar hamda munosabatlarning shakllanishi shaxsning kasbiy o'z-o'zini belgilash jarayonida amalga oshib, bu uning hayotiy faol pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Aynan boshlang'ich ta'lim pedagoglarini tayyorlash ta'lim yo'nalishlarida o'z-o'zini anglash va belgilash jarayoni shakllanishi muhim kasbiy zarurat bo'lib, bu shaxsni rivojlanishida kasbiy, shaxsiy, ijtimoiy jihatdan, hayotiy, qadriyat va boshqa xususiyatlarning birlashuvida kasbiy dunyoqarash vujudga keladi. Bu esa talabani hali o'quv faoliyati jarayonidayoq kasbiy faoliyatga kirishuvini ta'minlab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlashga zamonaviy ta'lim rivojlanish bosqichida kuchaytirilgan e'tibor qaratilishi umumiy boshlang'ich ta'limning ikkinchi avlod yangi ta'lim standartlarining ommaviy maktab amaliyotiga joriy etilishi bilan bog'liqdir.

Rivojlanish pedagogikasi g'oyalari A.G. Asmolov, L.S. Vygotskiy, L.V. Zankov, A.N. Leontev, D.B. Elkonin, V.V. Davydov, L.G. Peterson, V.I. Slobodchikova boshqalar tadqiqotlarida boshlang'ich umumiy ta'lim bosqichida ta'lim mazmuni va uni tashkil etish shakllarining yangilanishida o'z ifodasini topgan^{[2], [14]}.

Fikrimizcha, o'quvchilarning umumiy madaniyatini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy, shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, o'quvchining ijtimoiy muvaffaqiyatini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyati bilan bog'liqdir. Ularning shaxsiy sifatleri markazida o'zini anglash va o'zini qabul qilish, hayotdagi maqsad, shaxsiy o'sish, hayotni boshqarish va ijobiy ijtimoiy munosabatlar yotadi. Masalan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidagi mas'uliyat, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, empatiya, halollik kabilar bu yo'nalishlarning har birini mustahkamlab boradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsiy sifatleri kuchli tomonlar sifatida qadrlanib, o'quvchining his-tuyg'ularini anglash, ta'lim-tarbiya natijalarini yurakdan qabul qilish, shaxsiy va kasbiy o'sishga xizmat qiladi. Bu sifatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga faqat kasbiy muvaffaqiyat emas, balki ichki qoniqish, motivatsiya, ruhiy barqarorlikni beradi.

Tadqiqotchi olimlar pedagogik kasblarga xos bo'lgan, ularning o'ziga xosligini aks ettiruvchi kasbiy jihatdan muhim sifatleri, kasbga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabatni, o'qituvchi, o'qituvchi-professor, ustalarning shaxsiy yo'nalganligini ajratib ko'rsatadilar; shuningdek, pedagogik faoliyatga shaxsiy tayyorgarlikning mohiyatini insonning bazaviy qadriyatlari majmuasida ko'radilar, bu esa tarbiyachining kasbiy-shaxsiy sifatlerida - intellektual, emotsional, axloqiy-etik qadriyatlardagi namoyon bo'ladi.

Nazarimizda, boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining asosiy ijtimoiy va axloqiy qiyofasi shakllanadigan davr bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalar ongiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan tarbiyachi sifatida ham tavsiflanadi. U pedagogik faoliyatga shaxsiy tayyorgarlik darajasi orqali o'zining ichki qadriyatlarini namoyon etadi va aqliy tayyorgarlik asosida didaktik yondashuvlarni puxta o'zlashtiradi, har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan metodlarni tanlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhimdir.

Keltirilgan konsepsiyalar tajribali pedagog shaxsining ideal obrazini ochib beradi. Pedagog shaxsiga xos sifatlar ro'yxati 5 tadan 50 tagacha farq qiladi. O'tgan asr tadqiqotlarida pedagog shaxsi ideallashtirilgan. Unda shakllangan o'qituvchiga xos sifatlar tasvirlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XXI asr konsepsiyalarida tadqiqotchilar pedagogik kasbga shaxsiy tayyorgarlikning yetarli emasligi, tarbiyalilik darajasining pastligi muammosini ko'taradilar; pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar nafaqat kasbiy, balki shaxsiy sifatleri ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatadilar^[5]; boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy muhim sifatleri rivoji bilan uning professionallashuvi jarayonidagi obyektiv omillar va shakllangan stereotiplar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradilar; kasbiy-shaxsiy sifatlerining talabalarning ijtimoiy faolligiga ta'sirini o'rganadilar^[6].

Fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida kasbiy va shaxsiy sifatlar shakllanishida emotsional barqarorlik, empatiya, bolalarning ruhiy holatini sezish va unga moslashish juda muhim hisoblanadi. O'qituvchi bolaning har bir holatini yuragi bilan his qilishi, bolaning ichki dunyosiga yo'l topa olishi muhimdir. Shunday ekan, emotsional sezgirlik tarbiyachining shaxsiy qadriyatlari negizida yotishini aytish mumkin. Chunki, bolalar o'qituvchining har bir harakatidan, so'zidan, munosabatidan o'rnida olishadi va boshlang'ich sinf o'qituvchisi halollik, mehr, to'g'rilik, adolat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanishi muhim.

Demak, pedagogik faoliyatga shaxsiy tayyorgarlikni insonning bazaviy qadriyatlari bilan bog'laydigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida nihoyatda ahamiyatlidir. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shaxsiy tayyorgarligi uning ichki qadriyatlari bilan bevosita bog'liq, deyishga asos yaratadi.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik yo'nalishdagi talabalarda kasb tanlashdan qoniqish darajasi ko'pincha pasayishi, shaxsning psixologik tuzilmasida o'zgarishlar yuz bergani, ta'lim uchun muhim bo'lgan sifatlar o'zgargani aytiladi. Ta'lim-kasbiy va kasbiy faoliyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarmas va o'zgaruvchan shaxsiy sifatlar ajratib ko'rsatiladi^[4];

O'quv jarayonida talabalar shaxsining ularning rivojlanishidagi asosiy omil sifatidagi roli ta'kidlanadi. Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatiga shaxsiy sifatlerining ahamiyati bo'lib, kasbiy faoliyat uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsiy va kasbiy sifatlar o'qituvchilik kasbida muhim rol o'ynaganligini ushbu sifatleri uning shakllanishi, rivojlanishi va barqarorligi jihatidan farqlash ham mumkin.

Aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda muhim kasbiy-shaxsiy sifatlerining yo'qligi ularning muvaffaqiyatli professionallashuviga, zarur mehnat harakatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.



Umumkasbiy kompetensiyalar (UKK 1-9) ko'rsatkichlari guruhida aniqlanishicha, talaba ushbu kompetensiyalarni egallashi uchun quyidagilarga qodir bo'lishi kerak:

- kasbiy etikaga oid me'yorlarni qo'llashga;
- asosiy milliy qadriyatlarga tayanib, talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishga, ya'ni fuqarolik pozitsiyasi, bag'rikenglik, ko'p madaniyatli muhitda muomala ko'nikmalari, zamonaviy jamiyatda yashash va mehnat qilish qobiliyati, umumiy madaniyatni shakllantirishga.

Shuningdek, talabalarining xulqi va faoliyatini boshqarish tizimini shakllantirishga qodir bo'lishi kerak. Tahlil shuni ko'rsatadiki, professional kompetensiyalar va ularning erishish ko'rsatkichlariga qo'yilgan talablar orasida shaxsiy sifatlar juda qisqacha ifodalangan.

Bir tomondan, bu ijobiy holatdir, chunki bu yondashuv kelajakdagi pedagoglarni tayyorlash uchun mehnat faoliyatini yagona standart asosida uyg'unlashtiradi. Boshqa tomondan esa, o'qituvchining ideal psixologik portreti modeli mavjud emasligi pedagogika oliygohlari talabalari uchun tarbiya dasturini ishlab chiqishda qiyinchilik tug'diradi.

Pedagogik faoliyat mazmunini belgilovchi hujjatlarda talabalarining ushbu faoliyatga shaxsiy tayyorgarligi, ya'ni "pedagog shaxsining bolalar shaxsiy rivojlanishiga omil sifatida ta'siri" hisobga olinmasdan qolishi aytiladi. Demak, shaxsiy sifatlar insonning shaxsiyatida barqaror tarzda mavjud bo'lib, uzoq vaqt davomida o'zgarishsizligi, yoki, kam o'zgarishi mumkin.

Ular o'qituvchilik kasbiga bo'lgan moslikni belgilab, kasbiy yo'l tanlashda asosiy rol o'ynaydi. Masalan, mas'uliyatlilik xissi bolalar bilan ishlashda har bir so'z va harakat uchun javobgarlik his qilishni bildirsa, mehroqibatlilik, empatiya o'quvchining holatini tushunish va unga nisbatan samimiy yondashishni bildiradi.

Bu sifatlar ta'lim olish jarayonida rivojlanib, ularni shakllantirish ko'pincha uzoq muddatli tarbiya, shaxsiy tajriba va ichki motivatsiyaga bog'liqdir.

Boshlang'ich maktabda yangi o'qitish va tarbiyalash strategiyalarini joriy etish, bizningcha, faqatgina dars shaklini o'zgartirish yoki yangi pedagogik vositalar va darsliklardan foydalanishdan ko'ra ko'proq narsani talab qiladi.

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish muammosi bevosita o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish salohiyatiga, ya'ni u ta'limiy-ijtimoiy muhitda shaxsni rivojlantiruvchi o'zaro ta'sirning ishtirokchisi va tashkilotchisi sifatidagi roli bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtda bo'lajak pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi masalasiga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Bu borada quyidagi yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda:

- talaba shaxsini pedagogik jarayon subyektini sifatida shakllantirish shart-sharoitlari o'rganilmoqda (N.M. Borytko, Ye.V. Bondarevskaya, N.K. Sergeyev, V.V. Serikov va boshqalar);
- yosh davrida kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinmoqda (V.I. Isayev, V.I. Slobodchikov, T.V. Chernikova va boshqalar);
- talabaning o'quv-kasbiy faoliyat uslubini shakllantirish masalasi, bu esa uning shaxsiy-kasbiy rivojlanishining muhim omili sifatida, dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

N.K. Sergeevning ishlarida ta'kidlanishicha, pedagogik oliy ta'lim muassasasi har bir talabada shaxsiy va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ammo "oliy ta'lim muassasasida ilmiy-uslubiy faoliyat qay darajada yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lmasin, agar talabaning sifatli individual ishlash tizimi mavjud bo'lmasa, bu faoliyat o'z samarasini bermaydi", deya ta'kidlangan. Nazarimizda, bo'lajak o'qituvchi o'zining kuchli tomonlarini anglab, ularni ongli ravishda rivojlantirishi, nafaqat professional, balki barqaror shaxs sifatida shakllanishi muhimdir.

Ye.V. Bondarevskayaning tadqiqotlarida talabalarining real hayotiy, ma'naviy-axloqiy va kasbiy muammolari ta'lim mazmuniga kiritilishi zarurligi alohida ta'kidlanadi^[13]. Aytish mumkinki, pedagog zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchining faqat bilim darajasini oshirish bilan cheklanmasdan, balki uning ichki dunyosi, ruhiy holati, hayotga tayyorlanish ehtiyojlari bilan uzviy bog'lashi lozimdir. Talabalar ko'p hollarda o'qishda olgan bilimlarini hayotda qanday qo'llashni bilmayligi, darsliklar va o'quv materiallaridagi real hayotiy holatlar, masalalar, kasbiy vaziyatlar orqali aks ettirishi mumkin. Bu talabaning o'rganayotgan mavzuga shaxsiy ahamiyat berishini oshirib, shaxs tarbiyasida ma'naviy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

N.V. Kuzmina o'qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik yo'nalganligi tarkibiga quyidagi komponentlarni kiritadi:

- bolalarga, kasbga, ularning insoniy fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq ijodiy tarbiyaviy faoliyatga nisbatan qiziqish va muhabbat;
- o'qituvchilik mehnatidagi qiyinchiliklar va muammolarni anglash;



- pedagogik faoliyatga ehtiyoj;
- tanlagan kasb talablari bilan mos keladigan o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini anglash;
- doimiy o'zini takomillashtirish ehtiyoji va pedagogik mahorat asoslarini allaqachon oliygoh davrida egalashga intilish ^[12].

Demak, bo'lajk o'qituvchining yo'nalganligi motivatsiyaning chuqur shakli bo'lib, shaxsning ichki energiyasini harakatga keltirib, ijodiy faollikni ta'minlashga xizmat qiladi. Kasbga chin dildan yo'nala olgan o'qituvchi o'zini cheklamasdan o'quvchilarning hayotiy yo'lini o'ylashi, ta'limdagi innovatsiyalarni izlashi, o'z ustida doimiy ishlashga tayyor bo'ladi. Bu esa ichki resurslarning yuqori darajada safarbar etilishiga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim bugungi kunda o'z ishining haqiqiy professional bo'lgan yorqin shaxslarga ehtiyoj sezmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchi imiji fenomeni va uni shakllantirishning asosiy shart-sharoitlarini o'rganish alohida ilmiy-tadqiqot qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Nazarimizda, o'qituvchining ichki tarkibiy resurslarini tafakkur qilishi, irodaviy sifatlari, uning mehribonligi, bolalarga nisbatan samimiyligi, mas'uliyat, tashabbuskorlik, halollik va barqarorligi bilan xarakterlanadi. Chunki ular shunchaki tug'ma emas, balki kasbga bo'lgan ongli intilish va fidoyilik asosida rivojlanadi.

O'qituvchi qiyofasining tarbiyaviy qiymatini to'g'ri anglash yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishiga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ijobiy imij o'qituvchining kasbiy va shaxsiy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga kelib o'qituvchining imij kompetensiyasini shakllantirish muammosini qo'yish va hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lum bilimlar bazasi to'plangan ^[1]. Aytish joizki, boshlang'ich ta'limda bola hayotiga ilk ma'naviy, axloqiy, estetik, ijtimoiy mezonlar singdiriladi va ruhiy barqarorlikka ega, kasbini sevuvchi, o'zini bolalar taqdiri uchun mas'ul deb biluvchi o'qituvchini talab qiladi.

Ko'plab olimlarning tadqiqotlari natijasida pedagogik imidjologiya yo'nalishi shakllangan, unda o'qituvchi qiyofasi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat omili, atrof-dagilar bilan munosabatlarni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi ^{[1],[3],[7],[8],[11]}.

Fikrimizcha, kasbiy-pedagogik yo'nalganlik o'qituvchilik faoliyatida chuqur ichki harakatlantiruvchi kuch, ma'naviy pozitsiya, ongli hayotiy yo'nalish sifatida shakllanib, shaxsiy fazilatlar rivojlanishini ta'minlaydi, psixik resurslarni safarbar qilishga yordam berib, o'qituvchini pedagogik yetakchiga aylantiradi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu yo'nalganlikni erta bosqichda shakllantirish va mustahkamlash kasbiy tayyorgarlikning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining ijobiy imidjini shakllantirishga quyidagi ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir qilar ekan:

- o'qituvchining pragmatik va psixologik motivatsiyasi;
- individual uslubni shakllantirish bo'yicha harakatlarining yo'nalishini anglash;
- o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlari;
- atrof-muhit omili;
- xulq-atvor modelini tanlash omili;
- faoliyat natijasi omili;
- o'qituvchining o'z-o'zini baholashi ^{[9],[10]}.

Demak, bo'lajak o'qituvchining bilimdonligi, muloqot madaniyati, mehribonligi, adolatlilik, tashabbuskorligi uning ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qilar ekan.

Bo'lajak o'qituvchi bolalar bilan, ota-onalar bilan, hamkasblar bilan muloqot qila olishi, ular bilan hamkorlik qila olishi kerak. U ota-onalarga farzandining rivojlanishi haqida muntazam ravishda ma'lumot berib turishi, ularning taklif va mulohazalarini inobatga olishi lozim. Hamkorlik o'qituvchiga bolalarning ta'lim-tarbiyasi jaryonida ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning o'zaro ishonchini mustahkamlash va bolalar uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning shaxslilik xususiyatlariga bog'liqdir. Pedagogik faoliyatda empatiya, kommunikativlik, emotsional barqarorlik, pedagogik sezgirlik, mas'uliyatlilik, adolatlilik va kasbiy-pedagogik yo'nalganlik kabi sifatlar muhim



ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi uning ichki qadriyatlari, motivatsiyasi va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Pedagogik faoliyat jarayonida refleksiya, o'zini anglash va o'z ustida ishlashga intilish kasbiy mahoratning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki shaxsiy-kasbiy sifatlarini ham tizimli ravishda rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlik bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, emotsional va kommunikativ tayyorgarlikni mustahkamlash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Альбшлави М.М., Бурцева Е.В., Бурцев В.А. Экспериментальное исследование психофизиологического состояния квалифицированных тяжелоатлетов в подготовительном периоде годичного цикла спортивной подготовки // Наука и спорт: современные тенденции. - 2018. - Т. 21. - № 4 (21). - С. 60-66, [4, 7, 12, 20]
2. Асмолов, А. Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа : учебник / А. Г. Асмолов. - М. : Академия, 2002. - 416 с
3. Антипова А.М. Технология формирования имиджа учителя [Электронный ресурс]. - Фестиваль педагогических идей // Режим доступа: <http://festival.1september.ru/articles/419846/>
4. Ашмаров И. А. Влияние личностных качеств студентов в процессе обучения на результативность процесса профессионального становления и развития // Профессиональная ориентация. 2014. № 1. С. 13-31
5. Белов В. В., Щиглинская А. В. Профессионально важные качества представителей социально-экономических профессий: психологов и педагогов начального образования // Вестн. Ленингр. гос. ун-та им. А. С. Пушкина. 2019. № 4. С. 38-53
6. Булуева Ш. И., Кучмезов Р. А., Озиева Л. С. К вопросу о профессионально-личностных качествах студентов // Мир науки, культуры, образования. 2020. № 3 (82). С. 238-240. DOI: 10.24411/1991-5497-2020-00527
7. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Леженина С.В. Развитие мотивационного компонента спортивной культуры студентов в процессе спортивной деятельности // Теория и практика физической культуры. - 2019. - № 5. - С. 9
8. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Игошин В.Ю. Альтернативные подходы к формированию спортивной культуры личности на примере внедрения сингапурской системы обучения на уроках физической культуры в Республике Татарстан // Проблемы современного педагогического образования. - 2018. - № 59-3. - С. 133-136
9. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Русакова С.С. Экспериментальное исследование уровня развития информационного компонента спортивной культуры студентов в процессе учебно-познавательной физкультурно-спортивной деятельности // Современные проблемы науки и образования. - 2016. - № 4. - С. 186
10. Бурцев В.А., Бурцева Е.В., Норден А.П. Экспериментальное исследование уровня развития рефлексивного компонента спортивной культуры личности в процессе формирования ценностно-смысловых ориентаций студентов к самостоятельной организации спортивного стиля жизни // Современные проблемы науки и образования. - 2016. - № 5. - С. 253
11. Бурцева Е.В., Бурцев В.А., Чапурин М.Н., Мугаллимова Н.Н., Халиуллин Р.С., Мартынова А.С. Теоретическое обоснование экспериментальной методики обучения техническим элементам в волейболе при организации учебно-познавательной игровой деятельности студентов в процессе спортивно ориентированного физического воспитания // Проблемы современного педагогического образования. - 2017. - № 56-6. - С. 39-47
12. Булуева Ш. И., Кучмезов Р. А., Озиева Л. С. К вопросу о профессионально-личностных качествах студентов // Мир науки, культуры, образования. 2020. № 3 (82). С. 238-240. DOI: 10.24411/1991-5497-2020-00527
13. Бондаревская Е.В. Модернизация педагогического образования в инновационном пространстве федерального университета // Изв. Волгогр. гос. пед. ун-та. Серия "Педагогические науки". 2010. №7. С. 43-47
14. Выготский, Л.С. Психология развития как феномен культуры / Л. С. Выготский: избр. психологические тр.; под общ. ред. М.Г. Ярошевского; Моск. психолого-соц. ин-т. - М.: Ин-т практ. психологии; Воронеж: НПО МОДЭК, 1996. - (Психологи отечества: Избранные психол. тр.: в 70-ти т.). - 512с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.